



**«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Strategiya bosh direktori:
B.Raxmatov**

**«13» noyabr 2025 y.
№ 306**

Bank logotipi aks ettirilgan korporativ mahsulotlarni tayyorlash uchun

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent - 2025 yil

№	Nomi	Talablari
1	Buyurtmachi	«Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB
2	Bajariladigan ish yoki koʻrsatiladigan xizmat turi	Bank logotipi aks ettirilgan korporativ mahsulotlarni tayyorlash
3	Buyurtmachi manzili	Toshkent shahar., Alisher Navoiy koʻchasi 18 A-uy, 100011

4	Xizmatning batafsil tarkibi	Bank logotipi aks ettirilgan quyidagi korporativ mahsulotlarni tayyorlash: 1. Safar uchun charm sumka. Yopilganda balandligi 330 mm, pastki kengligi 260 mm bo‘lgan bu sumka o‘zining yumaloq ustki qismi bilan o‘ziga xos shakl kasb etadi. Mahsulot tabiiy Crazy Horse charmidan tayyorlanadi. Bir tomonida 200×210 mm o‘lchamdagi alohida bo‘linma (cho‘ntak) joylashgan bo‘lib, u 170 mm uzunlikdagi qulf va 45 mm charm ip bilan bezatilgan. Cho‘ntakda 6 qator kashta tikilgan bo‘lib, bu charmning nafisligini yanada oshiradi. Chap tomonda 183×183 mm o‘lchamdagi qulay cho‘ntak mavjud. Sumkaning ikki tomonida 760 mm uzunlikdagi qulf tizimi o‘rnatilgan bo‘lib, ular ikki tomonga ochiladi. Qulaylik uchun panjada tutish yamoqlari charm bilan mustahkamlangan, barcha metall detallar kumush rangli (12 mm) sifatli aksessuarlar bilan to‘ldirilgan. Sumkaning asosiy yuzasida 370 mm uzunlikdagi qulf joylashgan bo‘lib, mahsulot to‘liq ochilganda to‘rt tomonga yoyiladi. Ichki qismda 870 mm balandlikdagi kostyum bo‘linmasi va 150–160 mm o‘lchamdagi ikkita tikilgan cho‘ntak mavjud. Ushbu modelning dizayni va mexanizmi bank talablari asosida ishlab chiqiladi, har bir charm sumka uchun bank brendi asosida individual paket tayyorlanadi. Barcha mahsulotlar dizayni va mexanizmlari bank talabiga binoan tayyorlanadi va kelishiladi. Har bir sumka uchun sovg‘a qadigi tayyorlanadi. Qutining texnik tavsiflari: qadoq materiali: 300 g/mm karton, yuzasi: mat laminatsiya + UF-lak, qadoq o‘lchami: 62x39x8,5 sm. Yuqorida ko‘rsatilgan barcha mahsulotga bank talabiga asosan brend yozililadi va mahsulotlar dizayni hamda mexanizmlari bank talabiga binoan tayyorlanadi va kelishiladi. To‘plamning umumiy miqdori – 60 ta to‘plam. 2. Korporativ to‘plam. To‘plamda BRB brendining individual soyabon, ovoz uskunasi (kolonka) va termokrujkadan iborat. Mahsulotlarga bank brendi yozilishi va ularning o‘lchamlariga mos yagona sovg‘a qutisi tayyorlanishi lozim. Tarkibiy qismlar tavsifi: Soyabon qora rangda, buklanadigan konstruktsiyada, soyabon materiali yuzasiga BRB logotipi bosilgan. Logotip faqat materialga suv tushganda yaltiroq ko‘rinishda aks etadi, quruq holatda ko‘rinmas holatda bo‘ladi. Soyabon q‘ilofda joylashgan, ochib-yopish uchun tugmadan foydalaniladi. Yopilgan holatdagi o‘lchami 29*2,5 sm. Past qismida tashqi moslamaga o‘rnatish uchun qora kamar joylashgan. Ovoz uskunasi qora rangda bo‘lib, o‘lchami 9,5*7,5 sm. Uskunaga telefonni bluetooth orqali ulab, qo‘ng‘iroqlarni amalga oshirish, media ovozi translyatsiya qilish mumkin. Uskunaning o‘zida ovoz balandligini nazorat qilish, uskunani yoqish, media start/stop va bluetooth tugmalari, hamda tipe-c orqali quvvat berish joyi mavjud. Yon qismida tashqi moslamaga o‘rnatish uchun kulrang kamar joylashgan. Termokrujka tashqi tomondan qola mat kukunli qoplamada, 18/8 zanglamaydigan po‘latdan yasalgan, hajmi 500 ml sig‘imga ega. Mustahkam
---	-----------------------------	--

360° payvandlangan tutqich bilan jihozlangan. Mahsulot ikki devorli va vakuumli izolyatsiyaga ega. Ichimlikni 6 soat davomida issiq va 12 soat davomida sovuq holda saqlaydi. Konussimon shaklga ega, og'iz diametri 3.38 dyuym. Termokrujka havo o'tkazmaydigan 1 ta qopqog'i va 1 ta qayta ishlatiladigan plastik bilan birga bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha mahsulotga bank talabiga asosan brend yozilishi va uchta mahsulot joylashadigan quti tayyorlanishi lozim. Quti 4 mm qalinlikdagi qattiq karton qog'ozdan yasalgan, usti va ichi sifatli material bilan qoplangan, har bir mahsulot uchun uning hajmiga va shakliga mos keluvchi bo'limlar bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Barcha mahsulotlar dizayni va mexanizlari bank talabiga binoan tayyorlanadi va kelishiladi.

To'plamning umumiy miqdori – **150** ta.

3. Sayohat to'plami.

To'plamda bo'yin yostiqchasi, ekektron kitob o'qish uskunasi (book reader), simsiz quloqchinlardan iborat. Mahsulotlarga bank brendi yozilishi va ularning o'lchamlariga mos yagona sovga qutisi tayyorlanishi lozim.

Tarkibiy qismlar tavsifi:

Bo'yin yostiqchasi ostki qismi to'q kulrang, ustki qismi qora yumshoq barxat materialdan tashkil topgan, ichki qismi "xotira" effektiga ega qoplamadan iborat bo'lishi lozim. O'lchamlari 28*26*10 sm. Ichki qismini almashtirish uchun kichik zamok qo'yilgan.

Ekektron kitob o'qish uskunasi (book reader) o'lchamlari 13,5*11*0,7 sm. Ekran atrofi oq rangda, orqa qismi qora rangda tayyorlangan. Kitobcha shaklidagi to'q kulrang g'ilofda joylashtirilgan. Ekektron kitobcha rus va ingliz tilida menyuga ega, xotirasi 32 gb, 3 ta sensor tugmaga ega, TXT/ePub/fb2/PDF/RTF/DOC/HTML turdagi kitoblarni o'qish mumkin.

Quvvat adapter va tipe-c sim mavjud.

Qora rangli simsiz quloqchin o'lchamlari 19*22*4,5 sm iborat. Eko charmdan yasalgan g'ilofga ega. Tipe-c yordamida quvvat oladi. Burama ovoz balandligini sozlash va start/stop tugmalariga ega. Quloqchinda radio efirlarini uzatish imkoniyati mavjud. Quloqchinning dinamiklari qilofga joylashtirish uchun 90 darajaga buriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha mahsulotga bank talabiga asosan brend yozilishi va uchta mahsulot joylashadigan quti tayyorlanishi lozim. Quti 4 mm qalinlikdagi qattiq karton qog'ozdan yasalgan, usti va ichi sifatli material bilan qoplangan, har bir mahsulot uchun uning hajmiga va shakliga mos keluvchi bo'limlar bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Barcha mahsulotlar dizayni va mexanizlari bank talabiga binoan tayyorlanadi va kelishiladi.

To'plamning umumiy miqdori – **50** ta.

4. Individual to'plam

To'plam ko'z uchun mo'ljallangan va boyin qismi uchun ishlab chiqilgan simsiz massaj uskunalaridan iborat. Mahsulotlarga bank brendi yozilishi va ularning o'lchamlariga mos yagona sovga qutisi tayyorlanishi lozim.

Tarkibiy qismlar tavsifi:

Ko'z uchun mo'ljallangan smart massajyor ko'z sog'lig'ini saqlashga va charchoqni ketkazishga yordam beradi. Olchamlari: 205 x 75 mm; rangi: och kulrang; batareya: 1200 mAh; bluetooth: 5.0; rejimlar soni: 4; isitish: 42°C gacha; xususiyatlari: musiqa eshitish va ilova orqali boshqarish mumkin. NTC harorat sensoriga ega va iliq kompress hosil qiladi. Ko'z qismida teshiklar mavjud va ko'rishga to'sqinlik qilmaydi.

Boyin qismi uchun ishlab chiqilgan massaj uskunasi "U" shaklidagi yumshoq yostiq ko'rinishiga ega. Isitish imkoniyatiga ega. Og'irligi: 720 g;

o'lchamlari: 248*260*120 mm; batareya: 2550 mAh; rangi: kulrang; xususiyatlari: vibratsiyali massaj, isitish massaji; rejimlar soni: 10 ta; massaj zonalari: yelkalar, bo'yin. Qulflash tasmasi massajyorni mahkam bog'lash va foydalanish paytida uning siljishining oldini olish imkonini beradi. Yostiqning ichida bo'yin sohasini qoplaydigan va boshdan yelkagacha cho'zilgan 4 ta boshi (golovka) mavjud. Ilova orqali boshqarish va USB-C orqali quvvatlash imkoniyati mavjud.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha mahsulotga bank talabiga asosan brend yozilishi va ikkita mahsulot joylashadigan quti tayyorlanishi lozim. Quti 4 mm qalinlikdagi qattiq karton qog'ozdan yasalgan, usti va ichi sifatli material bilan qoplangan, har bir mahsulot uchun uning hajmiga va shakliga mos keluvchi bo'limlar bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Barcha mahsulotlar dizayni va mexanizmlari bank talabiga binoan tayyorlanadi va kelishiladi.

To'plamning umumiy miqdori – **80** ta.

5. Sovg'a tangalari to'plami

Laklangan futlyarda joylashgan kolleksiya uchun tangalar.

Futlyar to'rtta kolleksion tanga saqlash va namoyish etish uchun mo'ljallangan. Korpus yuqori zichlikdagi premium sinfli MDF materialidan tayyorlanib, yog'och turlarining tabiiy shponi bilan qoplangan. Shponning tabiiy to'qimasi amboyna yoki qizil yong'oq ildizining ipakdek tolalari kabi dizaynga ega. Sirt qoplamasi 16 qatlamli shaffof lak bilan ishlangan, oraliq quritish va sayqallashdan o'tadi. Futlyar yorig'likni qaytaradi va 15 gradus qarashda toshoyna tomsolini yaratadi. Tangalarning har biri alohida yog'och panelga o'rnatiladi, panelda gravirovka qilingan titan plastinkalar mavjud. Joylashuv qismi EVA ko'pikdan tayyorlanib, yumshoq "soft-touch" baxmal qoplamasi bilan himoyalangan. Tangalarni gorizontaal yoki qiya holatda namoyish etish mumkin, buning uchun maxsus sozlanadigan tayanch tizimi mavjud. Konstruktsiya yashirin menteşalar va magnitli yopilish tizimi bilan jihozlangan. Tashqi qismida markazda bosma texnologiyali logotip joylashadi.

Tangalar soni 4 dona. Tangalar diametri 40 mm. Tangalar qalinligi 3 mm. Material 24K tilla bilan qoplangan rux qotishmasi. Ishlab chiqish texnologiyasi qolipga quyish va 3D-gravirovka. Gurt tashqi perimetri

		bo‘ylab mavjud. Orqa tomoni bank brendi va oldi tomonlarida Toshkent, Samarqand, Buxorov a Xiva ramzlari gravirovka qilingan. Joylashuvi yog‘och panelda, titan plastinkalar bilan o‘ralgan. Ushbu modelning dizayni va mexanizmi bank talablari asosida ishlab chiqiladi, har bir sovg‘a uchun bank brendi asosida individual paket tayyorlanadi. To‘plamning umumiy miqdori – 30 ta to‘plam. 6. Suyak chinnisi to‘plami To‘plam suyak chinnisidan tayyorlangan chashka va likopchadan iborat. Mahsulotlarga bank brendi yozilishi va ularning o‘lchamlariga mos yagona sovg‘a qutisi tayyorlanishi lozim. To‘plam tarkibi: Materiali suyak chinnisi (Fine Bone China), oq, moviy va oltin ohanglaridagi naqshlar hamda Samarqand va Buxoro uslubidagi milliy ornamentlar bilan bezatilgan. Chashkaning tutqichi tilla bilan qoplangan va qopqog‘i mavjud. Balandligi 115 mm va Ø 80 mm o‘lchamdagi chashkasi mavjud. Likopcha Ø 166 mm o‘lchamda. Naqsh termotransfer usulida ishlangan va tiniq sir bilan himoyalangan. Qirralari va tutqichi 24 karatli tilla bilan qoplangan. Ushbu mahsulotlar qutiga joylashtiriladi. Qutining mexanizmi: Konstruktsiya turi suriluvchi javonli quti (sliding shelf box). Ochish mexanizmining tashqi qismi dekorativ “ramka” ko‘rinishida, ichki qismi yon tomondan javon kabi suriladi. Yopiq holatda old panel markazida BRB logotipi joylashgan, u UV bosma va yaltiroq lak bilan bajarilgan. Quti ochilganda (javon surilganda) logotip ko‘zdan yo‘qoladi va uning o‘rnida ichki panelda “buyurtmachi talabi bo‘yicha” yozuv paydo bo‘ladi. Shu tarzda logotip “shaxsiy tabrikka” aylangandek taassurot uyg‘otadi. Tashqi o‘lchamlari 425*330*85 mm, shakli to‘g‘ri burchakli, gorizontal yo‘nalishda. Qopqog‘ turi yon tomondan suriladigan yaxlit ramka, mahkamlash yashirin magnitli tizim orqali yengil qarshilik bilan amalga oshiriladi. O‘ng bo‘lim chinni to‘plam uchun. Asosiy material qattiq karton (qalinligi 3 mm). Qoplamasi yumshoq, baxmalga o‘xshash fakturali soft-touch dizaynerlik qog‘ozi. Bezagi Samarqand mozaikalari dizaynidan sharqona naqshli fon. Ichki joylashtiruvchi (lojament) material qora rangli EVA ko‘pikli material (qalinligi 20 mm). Qoplamasi yumshoq baxmal. Ushbu to‘plamning dizayni va mexanizmi bank talablari asosida ishlab chiqiladi, har bir sovg‘a uchun bank brendi asosida individual paket tayyorlanadi. To‘plamning umumiy miqdori – 30 ta to‘plam.
5	To‘l‘ovlarni amalga oshirish	Mahsulot yetkazib berilgandan so‘ng, bajarilgan ishlar xajmidan kelib chiqib imzolangandan hisob-faktura qiymatiga asosan 5 (besh) ish kuni ichida to‘lab beriladi.
6	Shartnomani amal qilish muddati	Shartnoma summasi to‘liq foydalangunga qadar.
7	Yetkazib berish muddati	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kalendar kun ichida.

8	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar to'liq bajarilganidan so'ng qabul qilish topshirish dalolatnomalari taqdim etish va ikki tomonlama imzolangandan keyin bajarilgan deb hisoblanadi
9	Kafolat muddati	365 kalendar kun
10	Ishtirokchilarning tashkilotchi bilan bog'lanish uchun aloqa telefonlari	(78) 150-93-39 (ichki 267) Ganieva Fatima

<https://hujjat.brb.uz/?pin=eQ83xJ24&id=8b8b72ea-659a-422b-8c3f-03bb4b731f74>